



## ISAJON SULTONNING TARIXIY ROMANLARIDA POETIK STRUKTURA VA BADIY TO'QIMA UYG'UNLIGI

(Ijodkor dunyoqarashi hamda ijodiy tamoyillar tanlovi)

*Xolmuratova Moxira Egamberganovna*

*UrDU "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi*

*E-mail: [moxlaroyim19910220@gmail.com](mailto:moxlaroyim19910220@gmail.com)*

*Tel raqami: +998933399120*

**Annotatsiya:** Maqolada yozuvchi Isajon Sultanning tarixiy romanlarida poetik struktura va badiy to'qima uyg'unligi tahlil etiladi. O'zbek tarixiy-badiiy nasrida qadimgi turkiylar hayoti qalamga olingan asarlar juda kam. "Bilga xoqon" romani qadim ajdodlarimiz obrazini yaratish yo'lidagi dadil qadamlardir. "Bilga xoqon" romani – turkiy xalqlarning o'n uch asrdan narigi davrdagi qayg'ulari ifodasi. Yozuvchi toshbitiklar orqali yetib kelgan ma'lumotlarni roman matniga mohirlik bilan singdirib yuborgan, qadimgi turk davridagi manzarani, qahramonlarning turkona tabiatini, hech narsadan tap tortmas botirligini saqlashga harakat qilgan. Asarda davr xususiyatiga ko'ra, arabcha va forscha so'zlar qo'llanilmagan, roman sof turkiy tilda yozilgan. Roman turk uluslarining birlik, qahramonlik, to'g'rilik, fidokorlik kabi muqaddas an'analaridan xabar beradi. Asarning birinchi bo'limi "Kichik yish" deb nomlangan, roman "Ko'gman tog'i etaklariga qish bola tashlagan, qor momoguldurak bilan yoqqan edi", – deya boshlanadi.

**Kalit so'zlar:** Ko'gman, xoqon, tamoyil, struktura, to'qima, estetik, tafakkur, konseptsiya, bitik.

**Abstract:** The article analyzes the harmony of poetic structure and artistic texture in the historical novels of the writer Isajon Sultan. In Uzbek historical-artistic prose, there are very few works in which the life of the ancient Turks is written. The novel "Bilga Khakhan" is a bold step towards creating the image of our ancient ancestors. The novel "Bilga Khagan" is an expression of the sorrows of the Turkic



peoples in the thirteenth century. The writer skilfully absorbed the information received through the stone inscriptions into the text of the novel, tried to preserve the scenery of the ancient Turkic period, the Turkic nature of the heroes, and their indomitable heroism. According to the characteristics of the time, Arabic and Persian words were not used in the work, the novel was written in pure Turkish. The novel informs about the sacred traditions of the Turkish peoples, such as unity, heroism, righteousness, and self-sacrifice. The first part of the work is called "Kichik Yish", the novel begins with "Winter threw a child at the foot of Kogman Mountain, and the snow was covered with snow."

**Keywords:** Kogman, khagan, principle, structure, fabric, aesthetic, thinking, concept, writing.

**Аннотация:** В статье анализируется гармония поэтической структуры и художественной фактуры в исторических романах писателя Исаджона Султана. В узбекской историко-художественной прозе очень мало произведений, в которых описан быт древних тюрков. Роман «Бильга хахан» — смелый шаг на пути к созданию образа наших древних предков. Роман «Бильга-каган» является выражением скорби тюркских народов в тринадцатом веке. Писатель умело впитал в текст романа информацию, полученную через каменные надписи, постарался сохранить декорации древнетюркского периода, тюркскую природу героев, их неукротимый героизм. Согласно особенностям того времени, в произведении не использовались арабские и персидские слова, роман написан на чистом турецком языке. Роман рассказывает о священных традициях тюркских народов, таких как единство, геройство, праведность и самопожертвование. Первая часть произведения называется «Кичик иши», роман начинается словами «Зима бросила ребенка у подножия горы Когман, и снег покрылся снегом».

**Ключевые слова:** Когман, каган, принцип, структура, ткань, эстетика, мышление, концепция, письмо.



Ijtimoiy voqelik, davr ruhiyati chigalligi, avvalo, odamzod ruhiy olamida bo'y ko'rsatadi. Iqtisodiy-madaniy, siyosiy-mafkuraviy kayfiyat zarblari qalbga yo`naladi, uning zarblariga ta'sir ko'rsatadi. Badiiy asar o`ta shaxsiy, shu barobarda, o`ta ijtimoiy mahsul bo`lganligi bois, zamon o`zgarushi, tafakkur yangilanayotgani unga ham o`z muhrini bosadi. Badiiy asar mana shunday evrilishlar, o`sishlar tasvir oynasi. Unda g'oya taraqqiyoti, inson ongi va ma'naviyati o'sish tarixi, ijobiy yangiliklar kasb etish jarayoni kuzatiladi. Shunga ko'ra, bir davrda yaratilgan qahramon ikkinchisidan farq qiladi, ijodkor yaratgan xarakter o`zga qiyofadan keskin tafovutlanadi. Biroq xarakter ruhiyati tasvirida o`ziga xoslik ustunki, joriy holatni adabiy mahoratga bog'lash maqsadga muvofiq. Borliqdagi biror bir hodisaning aynan takrori yaratilmagan, hayotning ana shu qonunidan kelib chiqsak, ikkita bir xil yozuvchining bo'lishi ham mumkin emas. Chunki har bir yozuvchining o`ziga xos ichki olami, hayotiy tajribasi, bilim darajasi, didi, go'zallikni ko'ra bilishi, tasavvuri, hayolot dunyosi, qalb ko'zi o'zigagina tegishlidir va shu o'zlik uning har bir asarida akslanadi. [Haydarov.A.6:3] Romandagi voqealar boshlanishi tog'ridan-to'g'ri Bilga xoqon bilan bog'lanib kelmasdan kichik-kichik guruhlardan boshlanadi. Bundan yozuvchining asosiy maqsadi tarqalib ketgan turkiy xalqlarning ayanchli ahvolda yashayotganligini ko'rsatib bergen desak mubolag'a bo'lmaydi. Asar boshlanishi qish faslidan ya'ni peyzaj tasviridan boshlanadi. Peyzaj (fr. paysage - joy, yurt) - adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqe'likning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochik makon (yopik makon - interer) tasviri. [Quronov.U.1:221.] "Ko'gman tog'i etaglariga qish bola tashlagan, qor momoguldirak bilan yoqqan edi.

Yonma-yon ikki qo'nalg'aning kigiz to'sqichi ochilib, oldin bir er, so'ng yana bir er tashga chiqdi. Ikkisida tumog'ini bostirib, po'stin kiyib olgan ekan. Birining oti Ishbara yamtar edi, Yamtar deb kuchi tanasiga sig'mas alpni aytishadi. O'rta bo'yli, tumog'i ostidan kokili chiqib turgan kichkina yigitcha esa Bulut edi". [I.Sulton.3.11.] Bu o'rinda biz mayda bo'lakka bo'linib ketgan turkiy xalqlarning bir bo'lagini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi asar boshlanishini bejizga qish faslidan boshlamagan, sababi qish faslida ozuqa kam va odamlar kun kechirishi juda qiyin ahvolda qolishgan bo'ladi. Asar ta'sirini oshirish maqsadida qahraton qishning qalin qor yog'gan vaqtini



tanlagan. Kunning naqadar sovuqligini esa ikki qahramonning ham tomog‘ini bostirib po‘stin kiyishidan bilishimiz mumkin. Bu kunlarda ozuqaning yo‘q ekanligini esa ikki qahramonning suhbatidan bilib olishimiz mumkin.

“– O‘g‘am, yaxshimisiz? – dedi Bulut yon o‘tovdan chiqqan Ishbaraga.

– Yiyishga birnimang bormi?

– Yo‘q, – dedi Ishbara to‘ng‘illab.” [I.Sulton.3.11.]

Bu voqealardan turkiy xalqlarning ayanchli ahvolga tushib qolganligini bilishimiz mumkin. Ya’ni yeyishga yemak topilmay och-nochor ahvolda qolishi. Birgina Bulut va Ishbara obrazlari orqali butun turkiy qabilalarning ayanchli holidan darak berib turmoqda. Xalqning ayanchli ahvolini Bulutning quyidagi so‘zlaridan ham bilsak bo‘ladi: “– Mol-qo‘yni yeb bitirdik, – dedi Bulut. – Oshliq tugab bitti, et yo‘q.

Jo‘jiqlar ochidan o‘layotir...” [I.Sulton.3:11.] Ahvol shu qadar og‘irligini biz bu asarda bolalar ochidan o‘layotganligidan ham bilamiz. Buning hammasiga qaramlik sababli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shunga o‘xhash voqeani biz Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida ham ko‘rishimiz mumkin:

“– Singling qani, bolam-ov?

– Singlim yotar chalajon.

– O‘g‘lim bo‘lgin, bolam-ov,

– Noniz bormi, onajon?!” [I.Sulton.3:282.]

Bu ikki vaziyat ham bir-biriga juda o‘xhash. Sababi ikkisida ham boshqa bir xalqqa qaram ahvolda qolishi va ochlikdan qiynalayotganligi tasviri keltirilgan. “Kishi o‘g‘li o‘lgani tug‘ilarmish...” [Sodiqov.Q.7.12.] Asarda keltirilgan jumla beixtiyor odamni o‘ylantirishga majbur qiladi. Ishbara tomonidan aytilgan Bilga xoqon so‘zida juda katta ma’no yashiringan. Sababi odam bolasi tug‘iladimi baribir kun kelib o‘ladi, qul bo‘lib ochlikda o‘lishdan ko‘ra, mardlarcha ozod bo‘lib jon bergen yaxshi degan ma’no kelib chiqadi.

“Bilga xoqon” romanida haqiqiy hayot jabhalari har tomonlama ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, unda Turkiy xalqlarning dushmani hisoblanmish Tabg‘ach elining naqadar hiylakor ekanligi va turkiy xalqlarning o‘zaro bir-biriga gij-gijlab urishtirib



qo‘yishi tasvirlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Asarning “Tabg‘ach o‘tmishi” qismida Tabg‘achning qanday paydo bo‘lishiga guvoh bo‘lamiz. “Chin kishisi avroqchi, oziqchi ekan. Turkiylarga yaltir-yultir narsalar, ipak matolar berib, qutqu bilan o‘ziga qaratdi...

Chin budun debdiki, bizning o‘yimiz kuchli, barcha avroqni bilamiz. Turk budun yigitlari yovqur, qizlari etli, qoruvli. Chin budun bilan Turk budunni qovushtirsak, o‘yi o‘zg‘ir, o‘zi botir budun yaralgay. U bizning qulimiz, qo‘riqchimiz bo‘lgay. Tabg‘ach shunday yaralibdi.” [Sodiqov.Q7:53.]

Quyidagi misollardan biz Tabg‘ach ham asli Turkiy qavmlarga aloqadorligini bilishimiz mumkin. Ammo Tabg‘achlar o‘zlarini Turkiylardan ko‘ra Xitoyga yaqin olishgan. Natijada Chin budun orzu qilgan niyatiga erishgan. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, yozuvchi asar motivi sifadida xalqning o‘zligini tiklab berishga bo‘lgan ishonch deb olishiga o‘ziga yarasha sabablar bisyor.

Bulardan biri xalqning o‘zligini yo‘qotishi natijasida Tabg‘achga qullikka tushushi va xalqning ochlikdan nobut bo‘layotganligini olishimiz mumkin. Shu o‘rinda yozuvchi Bilga xoqon nutqlari orqali xalqning o‘zligini anglashga yordam qilgan. Olomon Bilga xoqon so‘zlaridan ruhlangan holda o‘z erkini, milliyligini va eng muhimmi o‘zligini anglab yetish uchun o‘zlarini uning qo‘llariga topshiradi. Asarning eng mukammal joylaridan biri xoqon so‘zlarini eshitgan ayollar o‘zligini anglash va erkini qo‘lga kiritish maqsadida o‘z erlarini urushga yuborayotgan tasviri orqali ko‘rishimiz mumkin:

“Xotinlar erlarini o‘limga yo‘llashardi. Biroq hech yerdan yig‘i-sig‘i, oh-voh chiqmasdi. Qo‘zg‘alayotgan cherik orasidagi El Bo‘g‘u to‘pdan ayrilib xotinlar yoniga keldida, ot ustida turib:

– O‘lsam yig‘larsan? – dedi yuzini tirish bosgan, munkaygan xotiniga.  
– Bo‘lar bo‘lmas so‘zlama! – dedi xotin. – Seni o‘lgani yubormayapman, g‘alaba qozongani yuboryapman. O‘lsang, o‘g‘il-qizlaringni, kelinlaringni ko‘ziga qanday qaraysan?” [I.Sulton.3:36.]

Yuqoridagi misollar orqali Turkiy xalqlarning o‘z erkiga erishishga qanchalar tashna ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Asarda yozuvchi Bilga xoqon obrazi orqali



xalqni birdamlikka chorlagan obrazni gavdalatirgan desak o‘rinli bo‘ladi. Yozuvchi asarda asosiy roviy qilib El Bo‘g‘u obrazini tanlagan. Buni biz bir necha o‘rinlarda ko‘rishimiz mumkin. Xususan, har bir narsa haqida uning tilidan hikoya qilinadi. Shu o‘rinda nega aynan El Bo‘g‘u obrazini tanlagan degan savol tug‘ilishi tabiiy. Sababi ulusdagi eng oqil odam bo‘libgina qolmasdan, uning yozuvini o‘qib, yoza oladigan yagona shaxs va oqil edi. Turkiy xalqlarning mashhur dostonlari bo‘lmish “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” va boshqa dostonlarni ham asarda aynan El Bo‘g‘u tilidan keltirib o‘tadi. Yuqoridagi Tabg‘achning o‘tmishi haqidagi fikrlarni ham aynan El Bo‘g‘u tilidan ekanligi fikrimizni dalili ekanligini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda Turkiy qavmlarning paydo bo‘lishi haqida ham to‘xtalib fikrimiz o‘rinli ekanligini bildirib o‘tsak. “El Bo‘g‘uning cho‘pchaklarini cho‘liq-jo‘jiq angrayib eshitib o‘tiraverishdi...

Qachonlardir Ko‘k Tangri yer yuzini suvga bostirgan ekan. Bir qancha kishi cho‘kmasdan, eson qolibdi. So‘ng suvni yer yutib, quritibdi. Qurigach, u kishi quriqqa tushibdi. Uning uchta o‘g‘li bor ekan. Biri quloqsiz, o‘zinigina o‘ylar ekan. Ikkinchisi bunga ko‘nmasa-da, indamas ekan. Yana biri bo‘lsa ardoqlar ekan. O‘scha otasini ardoqlagan o‘g‘ildan siz tarqaldingiz, debdi...

U o‘g‘ilning oti Turk ekan. Turk o‘g‘lon o‘lgunicha otasining yumushini qilibdi,

ota o‘tgach esa ulusi bilan yura-yura shu yoqlargacha kelibdi.” [I.Sulton.3:77.] Bu misollar orqali biz ikki narsaga guvoh bo‘lishimiz mumkin: Birinchidan: Turk xalqining qadimiy va buyuk xalq ekanligiga guvoh bo‘lsak; Ikkinchidan: ota-onasiga sadoqatli va mehribon ekanligini bilishimiz mumkin.

Badiiy asarda ijodkor shaxsiyati akslanganligi bois undagi qator o‘rinlar muallif biografiyasi kontektsida yorqinroq anglashiladi. Shunga ko‘ra, biografik metod asarga muallif tomonidan yuklangan mazmunni anglashda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Badiiy ijod dunyoqarash bilan bog`liq tarzda kechadi. Dunyoqarash deganda konkret insonning dunyo haqidagi bilimlari, tushunchalari, g`oyalarini tushunamiz. Badiiy asarda akslangan badiiy voqelik ijodkor tomonidan ko`rilgan, uning ideali asosida ijodiy qayta ishlangan va g`oyaviy-hissiy baholangan voqelik



ekan, demak, badiiy asar mazmuni ijodkor dunyoqarashi bilan bog`liq bo`ladi. Ma'lumki, har bir inson dunyoni o`zicha ko`radi, uni o`zicha idrok qiladi va o`zicha baholaydi. Qizig`i shundaki, hammamiz ham o`zimiz ko`rgan voqelikni real voqelik deb tushunamiz, holbuki, bu — voqelikning ongimizdagi biz ko`rolgan va idrok etolgan aksi xolos, ya'ni, individual borliqdir. Shunday ekan, bir joyda, bir davrda yashab turgan ikki inson ongidagi voqelikning aksi bir xil bo`lolmaydi. Konkret badiiy asar mazmuniga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri ijodkor dunyoqarashidir. Inson voqelikni, unda yuz berayotgan hodisalarni o`zining dunyoqarashi bilan bog`liq holda ko`radi. Shunga ko`ra, biz "real voqelik" deb atayotgan narsa turli individlar ongida turlicha akslanadi va turlicha baholanadi, demakki, "haqiqat" tushunchasi nisbiydir [Rahmonov.N.5:4].. Bir davrda yashagan bir necha ijodkorning bir xil mavzudagi asarida tamoman farqli g`oyalarning ilgari surilishi, voqelik ularda turlicha baholanishi mumkin. Buning yorqin misoli sifatida Oybekning "Navoiy" va Isajon Sultonning "Navoiy" asarlarini olib ko`rishimiz mumkin. Ikkala asar boshqa-boshqa davrda yaratilgani, turli davrlarni qalamga olgani holda, har ikki asarda akslangan badiiy voqelik bir-biridan tubdan farq qiladi. Sababi, har ikki adibning asarida ham individual borliq — ularning ongida akslangan voqelikning badiiy modeli o`z aksini topgan. Voqelikning ijodkor ongida qay tarzda akslanishi bevosita uning dunyoqarashiga bog`liqdir. Har ikkala asar o'tmishdan bahs yuritadi, biroq ularni biografik kontekstda olinsa, har ikkala asarda ham ular yaratilgan davr muammolarini badiiy idrok etishga, o'sha davr haqidagi, davr kishilari haqidagi fikrlarini ifodalashga harakat qilgani anglashiladi. Takidlash joiz, har bir davr adabiy muhokamasi borliq va inson munosabatlari haqidagi tasavvurlarni yangilaydi, tarix jamiyat taraqqiyoti darajasini uyushtiradi. Zero, badiiy tizim mohiyati, birinchi navbatda, ong va tuyg'u chorrahasida kesishadi. Negaki, odamzod tiynatiga yig'ilgan ijodkor munosabatida davr ruhiyati hamda jamiyat a'moli birlashadi. Haqiqiy san'atkor qaysi ijtimoiy guruhga mansubligidan, qanday ijtimoiy maqsadlarga xizmat qilishidan qat'i nazar, u yaratgan badiiy asarda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorlik qiladi. Shu bois ham chinakam badiiy asarda ijodkor har vaqt ezgulik, go`zallik,adolat, insoniylik kabi mangu



qadriyatlar tomonida turadi. Umuminsoniy qadriyatlarga zid g`oyalarni o`ziga singdirgan asarning chinakam badiiy qimmatga ega bo`lishi mumkin emas. Zero, bunday asar o`quvchini o`zidan itaradi (ilon tanasi qancha go`zal ranglar jilosiga ega bo`lmasin, odamni o`ziga jalb qilish o`rniga o`zidan itaradi). Ko`ramizki, badiiy adabiyot va san'atdagi go`zallik ma'naviyatdan ayro holda yashay olmaydi, badiiyat estetik kategoriyagina emas, ma'lum ma'noda etik kategoriya ham sanaladi. Yuqoridagilardan ko`rinadiki, ijodkor erkin bo`lmog`i lozim, ya'ni, u muayyan mafkura doirasida shaxsligini namoyon eta bilmog`i zarurdir. Ikkinchchi tomondan, estetik idealda konkret mafkuraga nisbatan umuminsoniy qadriyatlar salmoqliroq bo`lishi lozim, shundagina badiiy asar o`tkinchi hodisa bo`lib qolmaydi, davrga nisbatan daxlsiz bo`lib qoladi.

Zero, asar mazmunining u yaratilgan konkret ijtimoiy-siyosiy holatga qaratilgan aktual qatlami vaqt o`tishi bilan baribir tushib qoladi, asarni yuzada tutib qoladigan tub estetik qatlam esa umuminsoniy qadriyatlar bilan hamohangdir. So`z san'ati tadriji hamda o`zjmiga xosligi hayotiy-maishiy ziddiyatlar falsafiy teranligini umumlashtirish yordamida voqe bo`ladi. Badiiy munosabatlar ruhiy mundarijasi uning mag`zi sanaladi. Zero, adabiy talqinda fikr teranligi, tasvir ravonligi hamda tasavvur aniqligi badiiy jihatdan markazlashadi. Ijodkor uchun tafakkur erkinligi muhim ahamiyatga ega. Har qanday iqtidor egasi ham ijodiy erkinlikka ega bo`lsagina, yangicha bir kashfiyotlar yaratishi mumkin yoki o`z iqtidorini to`la-to`kis ko`rsata oladi. Kishi ongida, dunyoqarashida tutqunlik bo`lar ekan, o`z hayotida va turmush tarzida aslo ijodiy o`zgarishlar bo`lmaydi. [Umurov.H.2:68]

Badiiy ijod uning nodir namunalarini yaratuvchi ma'lum bir xalqning e'tiqodiy qarashlari majmuasidan bahramand bo`ladi. Shu ma'noda u o'sha xalq dunyoqarashi, ma'rifiy olami va ma'naviyatini badiiy aks ettiradi. Shunga ko'ra, alohida xalqlar nomlari bilan ataluvchi adabiyotlarvujudga keladi. Xalqimiz ma'naviy madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi esa o'zbek adabiyotidir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng o'tmishni, fanlar tarixi, adabiy merosni o'iganishga jiddiy e'tibor qaratildi. [Yoqubov I. 4:8]



Badiiy adabiyot o'z taraqqiyoti jarayonida tarixni, avlodlar bosib o'tgan davrning ijtimoiy-siyosiy, moddiy-ma"naviy dunyosini o'rganadi va undan saboq oladi. U o'tmishni bugungi hayot bilan taqqoslaysidi. Adabiyotda yana bir muhim jihat borki, bu ham bo'lsa, memuar-biografiyalar yaratishdir. Shu bois biografiyada ijodkor asarlarini uning shaxsi, hayotiy kechinmalari bilan bir qatorda chuqr o'rganish maqsadga muvofiq.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. D. Quronov. "Adabiyotshunoslik lug'ati". Toshkent.  
«Akademnashr». 2013.
- 2.H. Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
3. I.Sulton. Bilga xoqon. Toshkent. "Factor books". 2022.
4. I.Yoqubov. Badiiy-estetik so'z sehri. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2011.
5. N.Rahmonov. Mangu bitiktoshlar ilhom: <https://uza.uz/posts/25169>
- 6.A.Haydarov. Jur'at jasorat va ijodiy mahorat mahsuli: <https://uza.uz/posts/287869>
7. Q.Sodiqov. Toshni tiriltirgan bitiklar: <https://yoshlikjurnali.uz/tadqiqot/toshni-tiriltirga>